M.S.MUXITDINOVA, M.M.XALILOVA

# MAKTAB REPERTUARI



78,573
M-92

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MUSIQA TA`LIMI KAFEDRASI

M. S. Muxitdinova, M. M. Xalilova

- 3870 -

# MAKTAB REPERTUARI

(O`quv-uslubiy qo`llanma)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

CHIRCHIQ-2022

Mazkur qo`llanmada tavsiya etilayotgan kuy va qo`shiqlar ta`lim dasturlarida nazarda tutilgan bo`lib, ular maktabgacha ta`lim tashkilotlarining musiqa rahbarlari, umumta`lim maktablari musiqa o`qituvchilari hamda musiqa ta`limi yo`nalishida tahsil olayotgan o`rta maxsus va oliy ta`lim talabalari uchun o`quv-uslubiy qo`llanma sifatida tavsiya etiladi.

Uslubiy qo`llannada berilgan kuy va qo`shiqlar o`rganilishi jihatidan u qadar murakkab emas, matnlari tez esda qoladi. Ularni o`rgatishda foydali bo`ladigan metodik tavsiyalar berilgan.

Qo`shiqlarning aksariyat qismi respublikamizdagi bolalar qo`shiqchilik dastalari tomonidan ijro etilgan, shuningdek, hali e`lon qilinmagan yangi qo`shiqlar ham ta`lim jarayonlarida foydalanish uchun tavsiya etilmoqda

**_Mualliflar:_** Malohat Saidjabborovna Muxitdinova,
Maxfuza Maxamadjonovna Xalilova-
ChDPU "Musiqa ta`limi" kafedrasi o`qituvchilari.

**_Taqrizchi:_** _Anvar Qudratovich Lutfullayev -_
_Nizomiy nomli TDPU professori,_
_"Musiqa madaniyati" fakulteti dekani._

Mazkur o`quv-uslubiy qo`llanma Chirchiq davlat pedagogika universiteti o`quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (2022 yil 27-oktyabr kunidagi 3-sonli bayonnoma)

## Kirish.

Ushbu Maktab repertuari uslubiy qo`llanmasining asosiy maqsadi – musiqiy asarni ijro etish va chuqur tahlil qilish asosida talabalarga ma`lum maqsadga yo`naltirilgan ta`lim berish va shu bilan birga o`z munosabatlarini ijodiy faoliyatga qarata olishlari, mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlashdan iborat.

Xalq musiqa ijodini, tarixiy boyliklar, milliy an`analar, fan va madaniyat yangiliklarini o`rganish, tanlangan repertuarlarini O`zbekiston bastakorlari asarlari bilan boyitish, uslubiy ko`rsatmalarni oddiylikdan murakkabga, murakkabdan umumiylik tizimi asosida olib boriladi va buning natijasida mustaxkam kasbiy bilimlar va ko`nikmalar hosil qilish ta`minlanadi.

Kelajak avlodga musiqiy-estetik tarbiya berish, musiqaga mehr uyg`otish va buyuk bastakorlar, pianistlar, san`atshunoslarni voyaga yetkazishda o`qituvchi kadrlarning o`rni beqiyos. Musiqiy tarbiya maktabgacha ta`lim muassasalaridan boshlanib umumta`lim maktablarda davom etiladi. Bunda musiqa madaniyati fani o`qituvchisining ijodkorligi, yetuk mutaxassisligi va vholg`u ijrochiligi repertuari bolalar asarlariga boyligi juda muhim. Shu sohada yetuk mutaxassislarni yetkazib berishda "Maktab repertuari" fanining ahamiyati katta. Maktab repertuari asarlari ustida ishlash fani barcha musiqa fanlaridan olingan bilim, ko`nikma va malakalarni umumlashtiradi. Maxsus cholg`u fortepiano, rubob, dutor, chang va boshqalarda yaxshi ijrochilik mahorati; nazariy tomondan musiqa nazariyasi, musiqa tahlili, garmoniya, musiqa adabiyoti, dirijorlikdan bilimlarni hamda, maktabgacha va maktabda musiqa o`qitish metodikasi fanlarini yaxshi bilishi kerak.

Oliy pedagogik musiqa ta`limi yo`nalishi bitiruvchisi yaxshi musiqachi pedagog va ish faoliyatida kerak bo`ladigan musiqa ijrochiligi malakalariga ega bo`lishi, maktabgacha ta`lim muassasasi, maktab va musiqa to`garagi dasturiga binoan kerakli asarlarini tanlay olishi lozim. Pedagogika OTM lari talabalari zimmasiga kata ma`suliyat yuklanadiki, ularning ta`siri ostida o`quvchilarning intellektual salohiyatlari, ijodiy faolliklari va kasbga mehrlari tarbiyalanadi.

O`qitishda yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o`qitish tizimi buning uchun yaxshi shart-sharoitdir. Ta`lim va tarbiyaning yutug`i o`qituvchilarning pedagogik qobiliyatlari va bilimlariga bog`lik.

Bilim, ko`nikma va malakalarni faoliyat turlari buyicha 3-guruxga ajratish mumkin:

- tinglash
- kuylash
- musiqiy-ritmik xarakatlar.

Musiqa asarlari ustida ishlash – asarni tahlil qilishdan boshlanadi. Bunda asardagi so`z ma`nolari, dinamik belgilari, avji, asarning kirish qismi va shunga o`xshash hamma belgilari o`rganib chiqiladi. Shu bilan birgalikda tovushlarni sifatiga etibor berish kerak.

**Fortepiano cholg`u sozi.**

Har bir xalqning o`z milliy cholg`u sozlari bo`lishi barchaga ma`lum. Bugungi kunda dunyoning barcha xalqlari orasida eng ommalashgan umuminsoniy cholg`u sozlari ham mavjud. Bulardan biri - fortepiano cholg`usidir. Ushbu cholg`u uchun jahonning barcha taniqli kompozitorlari qatorida O`zbekiston kompozitorlari ham yorqin asarlar yaratdilar. Ular yosh ijrochilar tomonidan sevib ijro etib kelinmoqda. Tarixga nazar tashlaydigan bo`lsak, fortepiano san`ati klassitsizm davrida paydo bo`lib, shakllana boshlagan va fortepiano cholg`usi yaratilgan. I.S.Bax va uning og`illari, shogirdlari klavir musiqasi uchun birinchi namunalar yaratdilar. Gaydn, Motsart, Betxovenlarning fortepiano ijodi bu cholg`uni yuksaklarga ko`tarilishida va ommalashishida muhim o`rin tutdi. London va Vena maktablari shakllandi. Klementi va Gummel ijodi ravnaq topdi. O`z navbatida Parij maktabi ham paydo bo`lib, Kalkbrenner va Talberg ijod namunalari tarqaldi. Shuningdek, Cherni ijrochilik mahorati maktabi shakllandi va bugungi kunda xam ushbu namunalar fortepiano ijrochiligining asosiy maktabi sanaladi. Romantizm davrida ham fortepiano ijrochilik san`ati yanada ravnaq topdi. Avstriya va Germaniya



romantizmiga Evropaning barcha ijodkorlari ergasha boshlashdi. Shubert, Veber, Mendelson, Shuman kabilarning fortepiano ijodi madaniyatlar tarixiga muhrlandi. Shopen va List – ijrochi va pedagog sifatida dunyoga tanildilar. Ularning fortepiano ijodi dunyoning eng mohir sozandalarga ham repertuar bo`ldi.

Evropa milliy fortepiano maktablari. Nemis fortepiano maktabi XIX asr ikkinchi yarmida milliy fortepiano maktablari shakllanishiga andoza bo`ldi. Nemis fortepiano maktabi vakillari - Brams va Reger, Franstiya fortepiano maktabi - Bize, Frank, Sen-Sans, Norveg-Chex fortepiano maktablari - Grig, Smetana va Dvorjak kabilar milliy fortepiano maktablarinig namoyandalari bo`ldilar. Rus fortepiano musiqasi "Kuchli to'da" hisoblanmish - Rubinshteyn, Chaykovskiy ijodida o`z aksini topdi. XIX asr ikkinchi yarmida "fortepiano pedagogikasi" tushunchasi paydo bo`ldi. Skryabin, Metner, Raxmaninov fortepiano san`atlari – ijodiyot va ijrochilikdagi yangi yo`nalishlar sifatida nom qozondi. XX asrning 20-40 yillarida ham fortepiano ijrochiligida sezilarli poonalarni kuzatish mumkin bo`ldi. 20-yillar yangi uslub yo`nalishlarining faol rivojlanish davri bo`lgan deb ishnoch bilan ta`kidlash mumkin. S.Prokofev fortepiano ijodi o`zgacha musiqiy til paydo bo`lishiga turtki bo`ldi. Ko`plab sonata va kontsertlar yaratildi. Prokofev nafaqat kompozitor, balki pianinochi sifatida ham jahon ahliga tanildi. Asr o`rtalarida yangi uslub yo`nalishlari shakllandi. Franstiyada impressionizm asosan Debyussining kechki asarlarida namoyon bo`ldi. Bu kompozitor o`z ijodini yangilash yo`lida izlanishlar qildi, yangicha mavzularga murojaat qildi. Xususan, musiqiy ijodiyotga urush obrazlarini kiritdi, bu "Oq va qora" deb nomlangan asarida yaqqol ko`rindi. 12 ta etyud - Debyussining kechki yo'nalish qomusi, deb nom oldi. XX asrning 2-yarmida fortepiano san`atida rivojlanish kuzatildi. Musiqiy avangardning har xil oqimlari paydo bo`ldi. A.Shyonbergning shogird va izbosarlari nafaqat butun dunyoda, hatto O`zbekistonda ham paydo bo`ldi. Musiqa materialini umumiy (total) qator birlashtirilishiga intilishning kuchayishi kuzatildi. Bunday rivojlanish bosqichlari O`zbekistonda ham bo`lib o`tdi.

## Fortepiano cholg`usi xususida.

500 yillik tarixga ega klavir san`ati Uyonish davrida vujudga kelib, XVII-XVIII asrlarda gullab-yashnadi. XVIII asr boshida fortepiano cholg`usi yaratilganidan so`ng, fortepiano san`ati rivojlanish davri boshlandi. Ushbu musiqa asbobi XVIII asrning boshlarida (1710 yilda) italiyalik Kristofori tomonidan yaratilgan bo`lib, unda ohista va baland tovushlarni chalish mumkin bo`lgan. Shu bois asbobning nomi "fortepiano" deb nomlanib, italyan tilida tovush kuchi nuqtai nazaridan - "baland-past" ma`nolarini bildiradi. Asbobni klavishlarini bosganda jaranglaydigan tovushlar esa klavishdan emas, balki asbobning ichida tarang ortilgan simlardan yangraydi. Agar simlar vertikal (tikka) tortilgan bo`lsa, *bu - fortepiano* chol`usi bo`lib, u hajm jihatidan kichikroq hamda katta bo`lmagan xonalarda ijro etish uchun mo`ljallangan (1-rasm).



1-rasm. Fortepiano cholg`usi.



Agar simlar gorizontal (yotiq) tortilgan bo`lsa, *bu - royal* cholg`usidir. Uning tovushlari balandroq va jarangli bo`lib, hajm jihatidan katta. Royal kontsert zallarida ijro etish uchun mo`ljallangan (2-rasm).



2-rasm. Royal cholg`usi.

**Fortepianoda o`tirish, ijrochilik holati.** Ma`lumki, har qanday cholg`uni ijro etishni o`rganishda avval cholg`u oldida to`ri o`tirib, gavdani, oyoq-qo`llarni erkin tutish kabi ko`nikmalar o`zlashtirishing muhimdir. Bu ko`nikmalarning o`zlashtirilishi ***ijrochilik holati***ning to`ri shakllanishiga yordam beradi. Fortepiano ijrochiligida 3 ta tayanch nuqtalari mavjud bo`lib, bular oyoq holati, o`rindiqda (stulda) o`tirish holati va "qo`l holati" (barmoqlar)dir.

1. Oyoq holati - bir oz oldinga surilgan holda yerga yoki maxsus taxtachaga tayangan bo`lishi lozim (3-rasm).



3-rasm. Oyoq holati.

2. O`rindiqda (stulda) o`tirganda, butun o`rindiqqa emas, balki uning yarmiga musthkam o`tirish kerak. O`rindiqning balandligi esa maxsus burama moslama yoki taxtachalar bilan shogirdga moslashtirilgan bo`lishi lozim. Uning balandligi shunday qo`yilgan bo`lishi kerakki, unda tirsaklar klavishdan pastda emas, balki ular bir tekis balandlikda bo`lishi maqsadga muvofiqdir (4-rasm).



4-rasm. O`rindiqda o`tirish holati.



3. Barmoqlar uchinchi - eng muhim tayanch nuqtalardan biri sanaladi. Gavdani tik tutgan holda qomatni bir oz oldinga, cholg`uga yaqin tutib, ***"qo`l holati"*** (barmoqlar)ni qo`yganda bilak tepaga ko`tarilmagan, tirsak tanadan ***30° burchak ostida*** bo`lishi maqsadga muvofiq. Elkalar erkin holatda hamda o`quvchining qaddi rostlangan bo`lishi lozim (5-rasm).



5-rasm. Qo`l va barmoqlar holati.

**Musiqiy tovushlar va fortepiano klaviaturasi bilan tanishuv.**

Musiqada 7 ta asosiy tovushlar bo`lib, ular – "do, re, mi, fa, sol, lya, si" deb nomlanadi. Biror bir klavishni bosganimizda jaranglaydigan tovush ushbu klavishning nomini belgilaydi, ya`ni klavish ham xuddi tovush kabi `do`, `sol` va hokazo deb nomlanadi.




Musiqada tovushlarni yozishda beshta chiziqdan foydalaniladi, ular *`nota yo`li`* deb nomlanadi. Chiziqlar pastdan tepaga qarab sanalib, undagi doyra (dumaloq) shaklida yozilgan belgilar nota deb ataladi.




Musiqada yettita nota bo`lib, ular nota yo`lining 5 ta chiziida joylashadi va quyidagicha yoziladi:




**Musiqiy kalitlar.** Kalit maxsus belgi bo`lib, u nota chiziqlarining biriga qo`yiladi hamda muayyan balandlikdagi tovushlarni o`rnini aniqlaydi. Kalit nota yo`lining boshiga qo`yiladi. Fortepiano asarlarini yozish uchun ikki xil kalitdan foydalaniladi. Har bir notaning nomi - nota yo`lining boshida turgan kalitga qarab belgilanadi.



Bu *skripka kaliti* - uning aylanasi ikkinchi chiziqdan yoziladi va nota yo`lida sol tovushini ochganligi sababli ***sol kaliti*** yoki ***skripka kaliti*** deb ataladi.





Bu **bas kaliti** kaliti- uning aylanasi to`rtinchi chiziqdan yoziladi va nota yo`lida fa tovushini ochganligi sababli **fa kaliti** yoki **bas kaliti** deb ataladi

**Tovushlar joylashuvi.**




**Notalarning cho`zimi**



***Butun nota 1i, 2i, 3i, 4i ga***

***Sanog`iga sanaladi***

***Yarim nota 1i, 2i sanoiga sanaladi***

***Chorak nota 1i sanoiga sanaladi***

***Nimchorak nota 1 yoki i sanoiga sanaladi***

**Takt va takt chizig'i** Siz biladigan she'rlardagi kabi musiqada ham kuchli, ya'ni urug'uli tovushlar bo'ladi. Nota yo'lida yozilgan ana shu urug'uli tovushlar oralig'idagi kuy - ***takt deb ataladi.*** Nota yozuvida taktlar vertikal chiziq bilan ajratiladi. Bu vertikal chiziq - ***takt chizig'i*** deyiladi.



Musiqa asarining bir kuchli hissadan ikkinchi bir kuchli hissagacha bo'lgan oraliq- ***takt*** deyiladi




Taktlar ikki, uch, to'rt chorakka teng bo'lgan turli cho'zimdagi notalardan tuzilishi mumkin. Takt o'lchovini ko'rsatuvchi raqamlar esa kalitdan so'ng yoziladi. Tepadagi raqam bo'laklar sonini, pastdagi raqam esa shu bo'laklar cho'zimini anglatadi.



Agar musiqa asari kuchsiz hissadan boshlansa, asar boshida to'liq bo'lmagan takt hosil bo'lib, bunga ***to'liqsiz takt*** yoki - ***takt oldi*** deyiladi. To'liqsiz takt ko'pchilik hollarda umumiy taktning yarmidan oshmaydi. Agar asardagi musiqiy jumla (fraza) to'liqsiz taktdan boshlansa, tugashi ham to'liqsiz bo'ladi.




Ikkita to'liqsiz taktlar bitta to'liq taktni tashkil etadi.



**Pauzalar.**

Qo'shiq yoki kuyning biron yerida tovushlarning to'xtashi yoki tanaffus qilinishi zarur bo'lsa, maxsus musiqiy belgilar qo'llaniladi. Bunday belgilar - ***pauza*** deb ataladi. Nota cho'zimlari har xil bo'lganidek pauzalar ham turli cho'zimda bo'ladi. Ular nota cho'zimlari singari butun, yarimtalik, choraktalik, sakkiztalik, o'n oltitalik, o'ttiz ikkitalik kabi ko'rinishlarga ega bo'lib, ijro etilmay, balki ushbu cho'zimida sanaladi.

**Butun pauza**



Butun pauza to'rtinchi chiziqning ostida yoziladi, - **'to'rt i...'** (yoki, "to'rt va...") sanog'i davomida yoki butun nota cho'zimida dam oladi.

**Yarimtalik pauza**



Yarimtalik pauza uchinchi chiziqning ustida joylashadi, - ikki i sanog'i davomida yoki yarimtalik nota cho'zimida dam oladi.

**Choraktalik pauza**



Choraktalik pauza - bir i sanog'i davomida yoki choraktalik nota cho'zimida dam oladi.

**O'n oltitalik pauza**



## MUSIQANING IFODA VOSITALARI

**Ritm** (usul) – musiqiy tovushlarni muayyan qancha vaqt davomida kelishiga aytamiz.

**Metr** (vazn) – ritmning o`lchov vositasiga kiradi. U bir xil cho`zimdagi muayyan ritmik bo`laklarning to`xtovsiz takrorlanishidir.

**Ohang** (melodiya) – kuyning eng kichik ifodali bo`lagi bo`lib, bir necha ketma-ket olingan tovushlardan hosil bo`ladi.

**Temp (sur`at)** Musiqa asarining ijro etilish sur`atiga - ***temp*** deb ataladi. Templar asosan uch xil ko`rinishda bo`ladi: oir templar, o`rtacha templar va tez templar.

**Og`ir templar** *Largo* (largo) - juda vazmin, juda cho`zib *Lento* (lento) - vazmin, cho`zib *Adajio* (adajio) - oir *Grave* (grave) - juda oir

**O`rtacha templar** *Andante* (andante) - shoshilmasdan, o`rtacha oir *Moderato* (moderato) - o`rtacha tez *Sostenuto* (sotsenuto) - salobatli *Allegretto* (allegretto) – jonlanib

**Tez templar** *Allegro* (allegro) - tez *Vivo* (vivo) - jonli, chaqqon *Vivace* (vivache) - jadal *Presto* (presto) - tez, oshiqib *Prestissimo* (prestissimo) - juda tez.

**Dinamik belgilar** Musiqa asarini ijrosi yoqimli bo`lishi yoki biror musiqiy obraz ta`sirini boyitib, tinglovchilarga eshittirish, tovushni qanday kengaytirilishini ko`rsatish uchun musiqada maxsus belgilar qo`llaniladi. Ushbu belgilar nomlari italyanchadan olingan bo`lib, ular ***dinamik belgilar*** deb ataladi.

Dinamik belgilar quyidagicha yoziladi va talaffuz qilinadi:

***p*** (*piano*) – mayin, kuchsiz, oxista;

***pp*** (*pianissimo*) – juda mayin, juda kuchsiz;

***mp*** (*messo piano*) – kuchsizroq (*piano*dan kuchli, *forte*dan kuchsizroq);

***f*** (*forte*) – qattiq, kuchli;



***ff*** (*fortissimo*) – juda qattiq, juda kuchli

***mf*** *(messo forte)* – qattiqroq, kuchliroq

***cr*** *(kreshchendo)* – tovushni tobora kuchaytirib borish

***dim*** *(diminuendo)* – tovushni tobora kuchsizlantirib borishi,

***sf*** *(sfortsando)* – ayrim tovushlarni to`satdan kuchli ijro etish:




**Legato (liga)** – lotinchada liga – `bog`layman` ma`nosini anglatadi, ya`ni tovushlarni uzmasdan ijro qilish:



Agar bir xil balandlikdagi ikki notani birlashtiruvchi liga bilan bolansa, ikkinchi tovush chalinmay faqat shu nota davomiyligida sanaladi:






**Stakkato** – italyanchada *stakkato* – `ajratilgan`, `alohida` ma`nolarini anglatib, tovushlarni qisqa-qisqa, uzib ijro etiladi. Bunda tovushning tagiga yoki ustiga nuqta qo`yiladi.



**Fermata** – italyanchada *fermata* – `to`xtash`, `to`xtab turish` ma`nolarini bildiradi. Bu belgi biror tovush, pauzaning tagiga yoki ustiga qo`yiladi. Fermata qo`yilgan nota yoki pauza asarning xarakteriga qarab, bir yarim va ikki barobariga cho`zib ijro qilinadi.



> Akstent – notani kuchliroq, tovushni ajratib ijro etish belgisi.

–_ Portamento – notani sal cho`zibroq, klavishni shuqurroq olishga undaydi.

8--------------------------------------- notalarning ustida joylashgan bo`lsa, bir oktava balandda ijro etish lozimligini bildiruvchi belgi.

8--------------------------------------- notalarning tagida joylashgan bo`lsa, bir oktava pastda ijro etish lozimligini bildiruvchi belgi.

### Repriza -qaytarish belgisi

Qo`shiq yoki musiqa asarining biror bo`lagini ikki marta takrorlab ijro etish zarur bo`lsa, qaytarish – ***repriza*** belgisidan foydalaniladi. U kuy bo`lagini takrorlanishi lozim bo`lgan taktlarining boshiga va oxiriga qo`yiladi:



**Volta** – butun bir asarni yoki uning muayyan qismini takrorlashda har xil tugashi mumkinligini anglatadi.




**Nota cho`zimlarini uzaytiruvchi belgilar** - ohanglarda notalar cho`zimi "nuqtalar", "ligalar" yordamida uzaytirilishi ham mumkin. Agar notaning o`ng tomonida nuqta (.) turgan bo`lsa, ushbu notaga o`zining cho`zimning teng yarmiga mos bo`lgan cho`zimni (uzunlikni) qo`shish kerak. Nuqtalar yordamida nota teng yarmiga uzayadi:





**Ton va yarim ton** - ikki yonma-yon tovushlarning balandlik jihatidan eng kichik oralii - ***yarim ton*** deb ataladi. Ikkita yarim ton - ***bir ton***ni hosil qiladi. Xuddi ikkita yarimta olmaning bo`lagini bir-biriga qo`shsak - bir butun olma hosil bo`lgandek.




Har bir tovush yarim ton va bir ton ko`tarilishi yoki pasaytirilishi mumkin. Bunday pasayish ***alterastiya***, ya"ni o`zgarish belgisi bilan ko`rsatiladi.

♯ **- Diyez -** tovushni yarim ton ko`tarish belgisi.

♭ **- Bemol** - tovushni yarim ton tushirish belgisi.

♮ **- Bekar -** diez yoki bemol kuchini bekor qilish belgisi.

X **- Dubl diyez -** notani bir tonga ko`taradi.

𝄫 **- Dubl bemol -** notani bir tonga tushiradi.

1) 

2) 



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

3)




Yuqorida berilgan alteratsiya belgilari:

1) notani oldiga qoyilgan bo`lsa u faqat aynan shu vaqtda, shu taktdagi notani o`zgarishi bilan ifodalanadi;

2) agar bemol yoki diyez asarning boshida, kalitdan so`ng berilgan bo`lsa, bu belgi o`zgarmay butun asar davomida o`z kuchini saqlaydi;

3) alteratsiya belgili notalar nomi belgi nomi bilan qo`shib, birgalikda o`qiladi - "si bemol", "si bekar" yoki "fa diyez", "fa bekar", va x.k.

**Ijro texnikasi.**

Fortepiano ijrosi texnikasi - bu ko`nikmalar, qobiliyatlar va usullarning umumlashmasi bo`lib, ular yordamida ifodali badiiy tovushga erishiladi. Cholg`uni o`zlashtirish asarni faqat texnik jihatdan malakali ijro etish emas, balki uning uslubiy xususiyatlari, xarakteri, tempiga rioya qilishdir.

Fortepiano ijrosi texnikaning butun tizimi bo'lib, bu tizimning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardir:

- yirik texnika (akkordlar, arpejjiolar, oktavalar, qo'sh notalar);
- nozik texnika (shkalali o`tishlar, turli melismalar va mashqlar);
- polifonik texnika (bir nechta ovozlarni birgalikda ijro etish qobiliyati);
- artikulyatsiya texnikasi (zarbalarni to`g`ri bajarish);
- pedal texnikasi (pedallardan foydalanish san`ati).

Musiqa yaratish texnikasi ustida ishlash deganda an`anaviy tezlik, chidamlilik va kuchdan tashqari, toza ijro va ifodalilik nazarda tutiladi. U quyidagi bosqichlarni o`z ichiga oladi:

[library stamp]



- Barmoqlarning jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirish:
- Boshlang`ich pianinochilarning asosiy vazifasi qo`llarni bo`shatishdir;
- Kaft, bilaklar silliq va kuchlanishsiz harakatlanishi kerak.

Og`irlik bilan – ya`ni qo`llarni qotirib ijro qilinganda, qo`llarni to`g`ri joylantirish qiyin (6-rasm).



6-rasm. Ijrodagi barmoqlar holati.

Barmoqlarni mustahkamlash uchun oddiy mashq mavjud: tirsaklaringizni stolga qijro g, qo`llaringizni erkin cho`zing. Ko`rsatkich barmog`ingizni iloji boricha yuqoriga ko`taring va stolga ozgina teging. Oddiy harakatni ikkala qo`lning barcha barmoqlari bilan navbatma-navbat takrorlash natijasida, barmoqlar bir xil kuchga ega bo`ladi. Faqat muskullar taranglashadi, qo`llar esa bo`shashadi.

Klaviatura bilan kirishish. Fortepiano texnikasi ustida ishlashning dastlabki bosqichlarida qo`llab-quvvatlash tuyg`usini rivojlantirish muhimdir. Buning uchun bilaklar klavishlar balnadligidan pastga tushiriladi va barmoqlarning kuchi emas, balki qo`llarning og`irligi tufayli tovushlar chiqariladi.

Inertsiya. Keyingi qadam bitta chiziq bo`ylab ijro qilish bo`ladi - Gammalar va oddiy o`tishlar. Shuni yodda tutish kerakki, ijro tezligi qanchalik tez bo`lsa, qo`lga kamroq og`irlik tushadi.

Sinxronizatsiya. Butun bilak bilan uyg`un ijro qilish qobiliyati trillarni o`rganishdan boshlanadi. Keyin yonma-yon bo`lmagan ikkita barmoqning ishini uchdan birlik va singan oktavalar yordamida sozlash kerak. Yakuniy bosqichda siz arpedjioga o`tishingiz mumkin - qo`llarni almashtirish bilan uzluksiz va to`liq ovozli ijro .

Akkordlar. Akkordlarni ajratib olishning ikki yo`li mavjud. Birinchisi, "klavishchalardan" - barmoqlar dastlab kerakli notalar ustiga qo`yilganda, so`ngra qisqa, baquvvat surish bilan akkord chiqariladi. Ikkinchisi - "klavishchalarda" - o`tish yuqoridan, avval barmoqlarni o`rnatmasdan amalga oshiriladi. Ushbu variant texnik jihatdan murakkabroq, ammo u parchaga yengil va tez ovoz beradi.

Applikatura. Barmoqlarni almashtirish tartibi ishni o`rganishning dastlabki bosqichida tanlanadi. Bu ijro texnikasi, ravonligi va ifodaliligi bo`yicha keyingi ishlarga yordam beradi. Musiqa adabiyotida berilgan muallif va tahririy ko`rsatmalarni hisobga olish kerak, ammo ijro etish uchun qulay bo`lgan va asarning badiiy ma`nosini to`liq etkazishga imkon beradigan o`zingizning ijro texnikangizni e`tiborga olish muhimroqdir.

Yangi o`rganishni boshlovchilar oddiy qoidalarga amal qilishlari kerak: Har qanday mashq yoki pozitsiya uchun barmoqlarni yozib olish kerak. Barmoqlardagi kuch bir xil bo`lishi kerak. Tez ketma-ketlikda takrorlashlar imkon qadar kamdan-kam sodir bo`lishini ta`minlash uchun ehtiyot bo`lish kerak.

Intizom. Yosh Fortepianochilar zaifroq barmoqlarni, uzun va kichik barmoqlarni kuchli o`rta barmoq bilan almashtirishni yaxshi ko`rishadi. Butun qo`lning uyg`un rivojlanishini o`rgatish uchun yetarlicha e`tibor berish kerak.

Dinamika va artikulyatsiya. Siz ifoda belgilarini hisobga olgan holda ishni ko`rsatilgan sur`atda darhol o`rganishingiz kerak. Fortepiano ijrosi texnikasini o`zlashtirgan Fortepianochi tabiiy ijro va tabiiy musiqa yaratish qobiliyatiga ega bo`ladi: asarlar to`liqlik va ta`sirchanlikka ega bo`ladi, charchoq yo`qoladi.

Gammalar kundalik ishda material sifatida zarur bo`lib, ijro harakatlariga katta e`tibor berishga imkon beradi. Bu keyinchalik etyud va ijro qilinadigan barcha asarlarda erkin foydalaniladi. Gammada - tovushga reaktsiya boshqa har qanday



mashqlarga qaraganda ko`proq va tezroq texnikani o`stirish jarayonini parallel ravishda rivojlantiradi. G.Neygauzning fikricha "Gammalarni yomon tovushlar bilan ijrosi, huddi Shopenning noktyurnlarini yoqimsiz tovushlar bilan chalgandek bo`ladi" deb aytgan.

Dars davomida o`quvchi bilan gammalarni ishlash ko`p vaqt olmaslik kerak. lekin bu bir necha daqiqa ijro qilinsada, o`qituvchi o`quvchining qanday o`tirishiga e`tibor berishi kerak. Shu bilan birga, o`quvchining ijrosida yangi xususiyatlar bormi, uning ijro harakatlariga ham ahamiyat qaratish zarur.

Melodik tuzilma ustida ishlayotganda, ohangda, birinchi navbatda, yaxlitlikka erishishga e`tibor berish muhimdir. Chiziqlarga, notalar joylashuviga, binobarin, asar yoki etyud va parchalardagi obrazli harakat "ohang" tarzida, ifodali, yaxshi legato bilan, to`la ohangli ijro etilishi kerak. Ushbu ish usuli gammalar uchun eng qulaydir. Muayyan holatda zarur bo`lgan mushaklarni tanlash, tashqi ko`rinishning hayajonlaridan himoya qiladi. Haddan tashqari stress-asabiylashish mumkin emas.

Bilakladagi katta qiyinchilik - bu bo`sh qo`yishni o`rganishni talab qiladi va silliq egiluvchan harakatni shakllantirish zarurligini anglatadi.

Birinchi barmoqda muammosiz ijroni shakllantirishga ishonch hosil qilish muhimdir. Bosh barmoq asta-sekin kerakli klavishga keltirilishi uchun suriladi. Shu bilan birga albatta, ijro uchun barmoqlarni asrash muhimdir.

O`quvchi o`rtacha tezlikda muammosiz ijro etishiga ishonch hosil bo`lganidan keyin, bir xil tovushlarni boshqa barmoqlar bilan ijrosi taklif etiladi. Barmoq bilan o`lchash, kist qo`llaniladigan, ya`ni 1, 2, 3, 1, 2 o`ng qo`l yuqoriga, chap qo`l pastga ijro qilinganida ovozning notekisligi kuchayadi. Agar vaqti-vaqti bilan gammaning qanday bajarilishiga qaytsangiz natijasi sezilarli bo`ladi. Ma`noga ega bo`lgan barmoqlarning asl ketma-ketligi tovush standarti kabi. Qachonki, o`quvchi mashqlarni bir tekisda bajara olsa yangi barmoq bilan 5ta tovushga, ya`ni 5-6 tovushdan iborat raqamga o`tishingiz kerak (1, 2, 3, 1, 2, 3) va asta-sekinlik bilan tonika tovushiga e`tibor qaratish kerak bo`ladi.

Ushbu mashqning afzalligi shuki, mashq juda tabiiydir. 5 barmoq ketma-ketligidan pozitsion o`tishni amalga oshiradi. Gammalarni chalganda, qo`l, qo`lning kengaytmasi sifatida uchta bo`lishi mumkin:

1. Qo`lning bevosita davomi sifatida.
2. Bosh barmog`i tomon burilish.
3. Kichkina barmoq tomon burilish.

Tez pozitsiyani almashtirish paytida barmoqlarning holatini o`zgartirishni osonlashtirish uchun qo`l har doim ijro yo`nalishiga suyanadi. Texnik tomonlama sekinlashadi, ammo qo`lning doimiy egilishini saqlab, tobora qiyinlashadi harakatga xalaqit beradi. Gamma ijrosida asosiy omil - bu barmoq ishidir. Barmoqlarni silkitish ham sekin mashqlarda bajarilishi kerak. Tez tempga aniq mos keladigan harakatlar bilan ijro qilish ayni muddaodir. O`quvchilar uchun taniqli qiyinchilik - bu sekindan – tezlikka o`tishdir. Buni har birini tezlashtirish orqali bajarish yordam beradi. O`tish joyini bo`lib ishlash mumkin. Qo`shimcha qilib aytganda ritmik variantlardan ham foydalanishingiz mumkin.

Shunday qilib, gamma chalganda, barcha asosiy harakatlarning individual xususiyatlaridan foydalanish va etyudlar chalganda masshtabli o`tishlardan foydalanib, texnik harakatlar va kamchiliklarni tuzatishni nazorat qilish zarur.

Arpedjiolar ketma-ketligini amalga oshirayotganda, ehtiyotkorlik bilan bajarish muhimdir. Qo`l pozitsiyasini izchil saqlash va silliq harakatga alohida e`tibor berilishi kerak. 1-barmoqni bosish texnikasi arpejjiolarda gammalarga qaraganda qiyin hisoblanadi.

Buni yengib o`tish uchun esa, qo`lning yengil harakatlanishi yordam beradi. Odatda tez sur`atda 1-barmoqni qo`yishda uyg`unlikka erishish oson emas va silliq qo`l harakatidan foydalanish kerak. Barmoqlarga e`tibor berish muhimdir.

Shunday qilib, birinchi barmoqni klavishga bosganda aktsent bo`lmasligi kerak. Birinchi barmoq yumaloq qismi bilan klavish ustiga tushganligiga ishonch hosil qiling. Kichkina qo`llar uchun arpejioni ijro qilish biroz qiyin bo`lishi mumkin, bu ko`pincha qo`lida kuchi bor o`quvchilarda yaxshi natijaga olib keladi. Asosan qo`lni erkin va yig`ilgan holatda ushlash kerak.



Barmoqlarni almashtirganda, butun tana bo`ysunishi kerak. Qo`lni harakatlantirish, barmoqlarni olish, joylashtirish tamoyillari 1-chi va u orqali 3 va 4-barmoqlarni siljitish texnikani yengillashtiradi. Keskin o`tishlar, keraksiz urg`u, yopishqoq qo`l va barmoq harakatlari silliqlik uchun sharoit yaratmaydi. Aksincha, harakatning yaxlitligi va tovush tekisligi sifatini buzadi. Ushbu turdagi texnikani rivojlantirishda dastlab sekin sur`atda ishlash kerak. Asosiysi, bu qulay hisoblanib va ijro qilish oson bo`ladi. Ammo, shu bilan birga sekinlik noqulaylik va qattiqlikka olib kelishi mumkin. Bunga yo`l qo`ymaslik uchun esa, barmoqlar qo`l bilan o`zaro ta`sir qilishi kerak.

Ushbu turdagi texnikada tovushlarning tekisligiga e`tibor berish kerak va barcha tovushlarni bir vaqtning o`zida ijro etish zarur. Tabiiyki, bu yerda faol bo`lishi kerak bo`lgan barmoq uchlari katta ahamiyatga ega. Klavishlarni his qilib ijrosi kerak. To`lqinli harakatlar bilakni tinch sekin sur`atda zarbalarning tezligi bilan bajarilishi kerak. Pozitsiya o`zgarishi bilan ham sekinlashish kuzatilishi mumkin. Ko`proq chalmaydigan barmoqlarga e`tibor berish lozim. Shunda ular o`zlari ham ijroda qatnashayotgandek holatni saqlab qoladi. Qo`l harakatlarini qotadigan holatga olib kelmaslik uchun ehtiyot bo`lish kerak. Barmoqlar xuddi ushlab turgandek harakat qilishlari kerak. Agar qo`l bilak haqiqatan ham kuchli bo`lsa, unda klavishlarni bosishda bilakning shakli ham, barmoqlar ham o`zgarmaydi.

Katta ovoz kuchini talab qiluvchi to`liq ovozli akkordlar mavjud bo`lib, ularni yelkadan chiqqan kuch bilan, ba`zan esa butun vujudi bilan ijro qilingan ovoz sifatini tinglash muhim, chunki. bunday akkordlarni qo`pol ijro etish holati kam uchraydi. Bunday akkordlarni ijro etishning asosiy sharti ijrochi aparatining erkinligidir. Yelka va orqa mushaklari, barmoqlarning barqarorligi, ularning chuqur kirib borishi, klaviatura, yelkada va orqada butun qo`lni qo`llab-quvvatlash hissi. Keyin akkordlarni garmonik tovushlari.

Ijroda akkordning barcha tovushlari eshitilishi ham muhimdir. Ko`pincha eng yuqori ovoz yetakchilik qiladi. Shunga qaramay, yuqori ovojni ajratib ko`rsatish va o`rta tovuchlarni tinglash qiyinroq bo`ladi. Tegishli barmoq bilan yuqori tovushni

chuqur chiqarish uchun bir necha marta, butun qo`lning og`irligini his qilish va keyin ushlab turganda akkordni ijrosi barcha tovush ovozini baravar yangrashiga yordam beradi.

Har qanday fortepianochi, yoki ushbu cholg`uda ijro etishni yangi o`rgana boshlagan inson ham barmoqlarning ravonligini rivojlantirish uchun mashqlarga muhtojdir. Ushbu mashqlar esa, fortepiano klaviaturasini his qilishga yordam beradi, shuningdek texnik ijro mahoratini rivojlantiradi.

Fortepiano ijrosi uchun siz barmoqlaringizni boshqara olishingiz kerak, ya`ni ularni kerakli vaqtda kerakli tezlikda va yangi yo`nalishda harakatlantira olishingiz lozim. Ushbu uslubiy ishning asosiy maqsadi Fortepianochilar uchun bir nechta oddiy mashqlarni taklif qilishdir.

Ba`zilar texnikadan faqat fortepiano ijrosida tezlik, kuch, chidamlilik bilan bog`liq narsalarni tushunadilar. Texnikaning zaruriy xususiyatlar - odatda, tozalik va ijroning aniqligi sifatida ham tan olinadi. Biroq, bu qarash juda cheklangan. Texnika beqiyos keng tushunchadir. Bu mazmunli ijroga intilayotgan Fortepianochi ega bo`lishi kerak bo`lgan hamma narsani o`z ichiga oladi. Fortepiano adabiyoti Fortepianochiga turli talablarni qo`yadi: juda baland va juda jim, yumshoq va keskin ijrosi qobiliyati, yyengil, to`lqinli va chuqur, gullab-yashnagan tovushga erishish, u yoki bu matndagi asarlarda Fortepiano tovushining barcha darajalariga ega bo`lish.

Barmoqlarni tezda harakatlantirish qobiliyati – asosan tabiatan bir nechta odamlarda mavjud bo`ladi. Badiiy maqsadga erishishdan tashqari, o`z maqsadiga muvofiq bo`lmagan tezlik, kuch yoki chidamlilikni namoyish qilish hech qachon tinglovchilarga haqiqiy estetik qoniqish keltirmaydi. To`g`ri, tezkor ijro fenomeni ko`pchilik odamlarda, shu jumladan professionallarda hayrat va hayratga sabab bo`ladi. Biroq, agar siz tez va jonli, ammo unchalik katta bo`lmagan tarkibni diqqat bilan tinglasangiz, texnik talablarni qondirish bilan birga, u yanada nozik xarakterdagi xatolar bilan to`ldirilganligini aniqlash qiyin emas.



**Asarlar haqida ma`lumotlar va ijro uchun tavsiyalar**.

**«Baxtiy erkatoy»**. To`lqin Toshmatov musiqasi, Haydar Muhammad she`ri.

Bu qo`shiqda erkatoy, dangasa Baxtiyor ismli bolakay haqida kuylanadi. Baxtiyor ertalab turib, choy ichmasligi, to`g`ri yo`l qolib loy kechishi, darslarni qoldirib yurishi haqida. Qo`shiq erkatoylik, yalqovlikning oxiri voy bo`lishi, hamma bolalar oldida uyalib qolishi haqida. Qo`shiq quvnoq, sho`õ, yengil va o`ynoqi xarakterda bo`lib, o`rtacha tez sur`atda ijro etiladi. Do-major tonligida yozilgan. Qo`shiq hazil mazmunida bo`lib, bolalarni odobli, mehnatsevar bo`lishga chorlaydi.

**«Paxtaoy»**. Fattoh Nazarov musiqasi, To`lqin Ilhomov she`ri.

Bu qo`shiqda mustaqil O`zbekistonimizning boyligi, g`ururi bo`lgan paxta haqida kuylanadi. Qo`shiqda paxtaning dalalarda lo`ppi-lo`ppi ochilib, osmondagi yulduzlardek sochilib, chanoqlarni to`ldirib, odamlarning ko`nglini xushnud etishi haqida kuylanadi. Bu qo`shiq sol-major tonligida yozilgan. Sho`x, quvnoq xarakterda. Tez sur`atda ijro etiladi. Kuplet shaklida yozilgan. Bu asar bolalarda Vatanga muhabbat, tabiatga mehr tuyg`ularini tarbiyalaydi.

**«Buvijonim»**. Dilorom Omonullayeva musiqasi, Yo`ldosh Suyunov she`ri.

Bu asar mehribon, qadrdon, sevimli buvijonlarimiz haqida. Qo`shiqda buvilar nevaralarini erkalab, ertaklar aytib berishlari, shirinso`zliklari ifodalanadi. Buvilar nevaralarini judayam yaxshi ko`rishlari, bir kun ko`rishmasa, sog`inib qolishlari, uyimizning eng qadrli, aziz insoni ekanliklari haqida kuylanadi. Qo`shiq kuyi ohista va mayin bo`lib, unda g`amxo`r va mehribon buvilarimizning qiyofalari o`z aksini topgan. Asar qo`shiq-raqs janrida yozilgan. Re-major tonligida. Shoshmasdan, quvnoq, tez sur`atda ijro etiladi. Kuplet shaklida.

**«Yangi yilim — yaxshi yilim»**. Doni Zokirov musiqasi, Po`lat Mo`min she`ri.

Bu qo`shiq barcha intizorlik bilan kutadigan bayram — yangi yil haqida. Yangi yilda bolalar ta`tilga chiqib, archa bayramlariga borishlari, quvnab-xursandchilik qilib, bahr-dillari ochilishi va har yangi yilni yaxshi o`qishlar, a`lo baholar bilan kutib, bayramni maqtashdan charchamasliklari haqida kuylanadi. Bu qo`shiq quvnoq, sho`x, raqs xarakterida ijro etiladi. Qo`shiq-raqs janrida, Do-minor tonligida yozilgan. Kuplet shaklida. Tez sur`atda ijro etiladi.

**«Nevaralar qo`shig`i».** Nadim Norxo`jayev musiqasi, Safar Barnoyev she`ri.

Ushbu qo`shiq shirin so`zli, beozor, mehribon buvi va bobolarimiz haqida yozilgan. Bolajonlarimizning niyatlari pok va nurli bo`lishi, bobo va momolari bilan yashash qanchalik sururli ekanligi haqida zavq bilan kuylanadi. Asar kuplet shaklida yozilgan bo`lib, sho`x, quvnoq xarakterda ijro etiladi. Do-major tonligida. Tez sur`atda kuylanadi.

**«Oy bo`lamiz, toy bo`lamiz».** Habibullo Rahimov musiqasi, Safar Barnoyev she`ri.

Ushbu asarda bolalar kelajakda Amir Temur bobolaridek botir, qo`rqmas, jasur bo`lishlari haqida kuylanadi. Yigitlar Alpomishdek, qizlar Barchinoydek zukko, bilimdon bo`lib voyaga yetishlari, ona Vatanga mehr-muhabbatli, sodiq, mard o`g`lon bo`lib xizmat qilishlari haqida madh etiladi. Bu qo`shiq kuplet shaklida. Qo`shiq-raqs xarakterida, tez sur`atda ijro etiladi. Fa-major tonligida.

**«Bolalar va g`ozlar».** Jamoliddin Najmiddinov musiqasi, Muhammad Qo`shoqov she`ri.

Bu qo`shiq g`ozlarning ko`llarda uchib-o`ynab, qo`shiq kuylab yurishlari, bolalar bilan do`stliklari, doimo yaxshilikka, ezgulikka, do`stlikka intilib yashashlari haqida yozilgan. Kuplet shaklida ijro etiladi. Hazil-mutoyiba xarakterida, o`rtacha tez sur`atda ijro etiladi. Re-major tonligida yozilgan.

**«Inoq o`ynaymiz».** Fattoh Nazarov musiqasi, G`iyos Komilov she`ri.

Ushbu asarda bolalarning o`zaro do`stliklari haqida kuylanadi. Ular doimo birga o`ynab, o`qishlarda bir-birlariga yordam berishlari, goho po`m-po`m deb arazlashib, keyin bu eng yomon odatligi, birga inoq o`ynab, qalin do`st bo`lish kerakligi haqida kuylaydilar. Qo`shiq rondo shaklida ijro etiladi. Sho`x, quvnoq xarakterda, o`rtacha tez sur`atda ijro etiladi. Fa-major tonligida yozilgan.

**«Oy Vatanim».** Shermat Yormatov musiqasi, Erkin Qambarov she`ri.

Bu qo`shiq Vatanimizning insonlar dilidan joy olganligi, bog`larining kengligi, bag`rining go`zalligi, mevalarining shirin-shakarligi haqida. Vatan insonga suv va havodek zarurligi, inson Vatansiz yasholmasligi haqida kuylanadi. Qo`shiq mayin,



cho`zib, ohista kuylanadi. Bu qo`shiq o`quvchilarning Vatanga muhabbat tuyg`usini o`stiradi. O`rtacha sur`atda ijro etiladi. Re-major tonligida yozilgan.

**«Sog`lom avlod qo`shig`i».** Shermat Yormatov musiqasi, Safar Barnoyev she`ri.

Bu qo`shiqda bolalarning orzu-umidlari haqida kuylanadi. O`zbekistonda quyosh charaqlab turishi, tinchlik barqarorligi madh etiladi. Shuningdek, bolalarning yuzga kirganlarida ota-onalari yonlarida bo`lishlari haqida ham kuylanadi. Qo`shiq sho`x, quvnoq, raqs xarakterida ijro etiladi. Kuplet shaklida, fa-major tonligida.

**«Aziz ustozlar».** Sobir Boboyev musiqasi, To`lqin she`ri.

Bu qo`shiq aziz ustozlar haqida. O`quvchilar ustozlarni e`zozlashlari, ularning mehnatlarini qadrlashlari, hech qachon unutmasliklari haqida kuylanadi. Qo`shiq kuplet shaklida o`rtacha sur`atda ijro etiladi. Mi-minor tonligida yozilgan.

**«Biz askarmiz».** Nadim Norxo`jayev musiqasi, Iskandar Rahmon she`ri.

Bu qo`shiq Vatanimiz tinchligi uchun qalqon bo`lgan askarlarimiz haqida. Askarlarimizning yer-u osmon, ummonda qalqon bo`lib tinchlikni, barcha marralarni jasur o`g`lon bo`lib himoya qilishlari haqida kuylanadi. Marsh xarakterida ijro etiladi. Fa-major tonligini yozilgan.

**«Kichkintoymiz — gijingtoymiz».** Komil Kenjayev musiqasi, Po`lat Mo`min she`ri.

Bu qo`shiqda o`quvchilarning bir-biri bilan ahilligi, do`stligi haqida kuylanadi. Bolalarning hazillashib, quvlashib o`ynaganlari, o`sib katta bo`lib, kuch to`plab, sog`lom, odobli bolalar bo`lib o`sishlari haqida madh etiladi.

Qo`shiq tez sur`atda ijro etiladi. Re-minor tonligida, kuplet shaklida yozilgan.

**«Shirintoy».** Aleksandr Berlin musiqasi, Umida Abduazimova she`ri.

Bu asarda jajji Shavkatjonning shirin choyni yaxshi ko`rishi, uni hamma erkalab Shirintoy deb atashi haqida kuylanadi. Shirintoy — Shavkatjonning dangasa, erinchoqligi, bunday bolalarni to`g`ri tarbiyalash va erkatoy bo`lishiga yo`l qo`ymaslik haqida bayon etiladi. Ushbu qo`shiq kuplet shaklida yozilgan, quvnoq, sho`x sur`atda ijro etiladi. Re-major tonligida.

**«O`ynasangchi tipratikon».** Nadim Norxo`jayev musiqasi, Po`lat Mo`min she`ri.

Bu qo`shiqda o`quvchilarning tabiatga, hayvonot olamiga bo`lgan muhabbati ifodalanadi. Bolajonlar tipratikonga mehr qo`yib, uni davraga tortib, raqsga taklif etadilar. Tipratikon hamma yog`lari tikan bo`lgani uchun raqsga tushishga tortinadi. Bolalar esa uni erkalab o`z do`stlari deb ataydilar. Bu qo`shiq kuplet shaklida yozilgan. Sho`x, raqs xarakterida, tez sur`atda ijro etiladi. Fa-diyez-major tonligida yozilgan.

**«Ayiqpolvonlar bog`chasi».** To`lqin Toshmatov musiqasi, Haydar Muhammad she`ri.

Bu qo`shiqda ayiqpolvonlar haqida kuylanadi. Ularning o`rmonda to`planishib, maza qilib asal yalashlari, qo`l ushlashib quvnoq qo`shiqlar aytishlari haqida. Bolalar bu qo`shiqni zavq bilan kuylaydilar. Qo`shiq kuplet shaklida yozilgan. O`rtacha sur`atda ijro etiladi. Quvnoq, sho`x xarakterda, Mi-bimol-major tonligida yozilgan.

**«Quyon».** Qo`ldosh Ma`mirov musiqasi, Ilyos Muslim she`ri.

Bu asar bolalarning quyonga g`amxo`rligi, uni barra o`tlar bilan boqishlari va parvarishlab qarashlari haqida kuylanadi. Qo`shiq kuplet shaklida, quvnoq, sho`x xarakterda, tez sur`atda ijro etiladi. Do-minor tonligida yozilgan.

**«Diyor madhi».** Nadim Norxo`jayev musiqasi, Habib Rahmat she`ri.

Bu qo`shiqda ona Vatanimizning bepoyonligi, obro`-e`tiborga ega ekanligi, kelajak avlod bu Vatanni asrab, unga xizmat qilishi, uning ishonchini oqlashi haqida kuylanadi. Re-minor tonligida, kuplet shaklida yozilgan.

**«Muzqaymoq».** Avaz Mansurov musiqasi, Erkin Qayumov she`ri.

Bu qo`shiqda muzqaymoqning sutday oppoqligi, mazaliligi, muzdekligi haqida kuylanadi. Muzqaymoqni chaynamasdan yeyilsa ham, og`izda mazasi qolishi haqida yozilgan. Qo`shiq quvnoq, sho`x xarakterda ijro etiladi. Do-major tonligida yozilgan.

**«Diloromning qo`shig`i».** Dilorom Omonullayeva musiqasi, Ibrohim Donish she`ri.



Ushbu asarda jajji, quvnoq qiz Dilorom haqida kuylanadi. Quvnoq va xushovoz qiz Dilorom qo`shiqlar aytib, doimo shod, xushchaqchaq bo`lib yuradi. Kuplet shaklida yozilgan ushbu qo`shiq sho`x, quvnoq, kuychan xarakterda ijro etiladi. Tez sur`atda, ijro etiladi. Fa-major tonligida yozilgan.

**«Qish chog`lari».** Fattoh Nazarov musiqasi, Po`lat Mo`min she`ri.

Qo`shiqda qish faslining yoqimliligi, hamma yoq oppoq bo`lib, go`yo oq chamanzorga o`xshashligi, sovuq havoda qorbo`ron o`ynash sog`liq uchun foydali ekanligi haqida kuylanadi. Kuplet shaklida yozilgan, o`rtacha sur`atda ijro etiladi. Re-minor tonligida.

**«Ochil paxtajon».** Mutal Burhonov musiqasi, Tolib Yo`ldosh she`ri.

Oq paxta o`lkamizning husni ekanligi, baxtimiz ham paxtamiz singari doimo kulib turishi, yiqqan xirmonimiz ko`klardan oshishi haqida kuylanadi. Qo`shiq mayin, o`rtacha sur`atda ijro etiladi. Mi-minor tonligida, kuplet shaklida yozilgan.

**«Yaxshi bola».** Nadim Norxo`jayev musiqasi, Po`lat Mo`min she`ri.

Bu asarda bolalarning odob-axloqlari haqida kuylanadi. Bunda yaxshi bola elga manzurligi, ikki baho olmasligi, maktabga kech qolmasligi, ish buyursang xo`p bo`ladi, deb tez bajarishi, o`rtoqlarining ko`p bo`lishi, yaxshiligi yuz-ko`zidan sezilishi haqida yozilgan. Qo`shiq tez va quvnoq sur`atda ijro etiladi. Kuplet shaklida, mi-major tonligidan ijro oxirida fa-major tonligiga o`tiladi.

## O'ZBEKISTON DAVLAT MADHIYASI

A.Oripov she`ri M.Burhonov musiqasi

*Maestoco*








Serquyosh, hur o`lkam, elga baxt, najot,
Sen o`zing do'stlarga yo`ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

**Naqorat:**

Oltin bu vodiylar – jon O`zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug` xalq qudrati jo`sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag`ri keng o`zbekning o`chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo`r qanot!
Istiqlol mash`ali, tinchlik posboni,
Haqsevar, ona yurt, mangu bo`l obod!

**Naqorat:**

Oltin bu vodiylar – jon O`zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug` xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!



# AZIZ BO'STON - O'ZBEKISTON

M.Mirzo she'ri

D.Omonullayeva musiqasi






Bu dunyoda chamanlar ko'p,
bu dunyoda vatanlar ko'p.
Barchasida yashnar gullar
barchasida yayrar dillar.

Naqorat:
Mening uchun aziz bo'ston -
O'zbekiston, O'zbekiston!

Chorlar ezgu yo'llar meni,
ajdodlarim qo'llar meni.
Bu vatanda to'kmasman yosh,
bu vatanda egmasman bosh.

Naqorat:
Mening uchun aziz bo'ston -
O'zbekikton, O'zbekiston!

Sahrolar gul ochar senda,
samolar nur sochar senda
Yulduzlaring so'nmasin hech,
Bag`ringga g`am qo'nmasin hech.

Naqorat:
Mening uchun aziz bo'ston -
O'zbekiston, O'zbekiston!



# Bahor valsi

M. Mirzayev musiqasi







# Chertmak

O'zbek xalq qo'shig'i

Habibullo Rahimov
qayta ishlagan



# Dilxiroj

O`zbek xalq kuyi











# DILOROMNING QO'SHIG'I

I.Donish she'ri

D.Omonullayeva musiqasi






Quvnoq xush ovoz,
Jajji dilorom.
Qo'shig'i dilga
Baxsh etar orom:
Ayam va dadam
Bo'lsinlar bardam,
Dunyo turguncha
Tursinlar har dam.

Bog'chamizda u
Barchaga yoqqan,
Yosh qalbi jo'shib
Daryodek oqqan.
Qo'shiq sevmaslar
Yo'qdir olamda,
Men katta bo'lsam
Bo'lay xonanda.

Kuylar dilorom,
Xushchaqchaq bardam,
Dunyoda ozod
Bo'lsin har odam.
Qalb ovozimni
Tinglasin olam,
Tinglasin dadam,
Tinglasin olam.



# KULCHA NON

F. Mo'min she'ri

I. Hamroyev musiqasi




2. Shirinligi o'zimday,
Issiqligi yuzimday,
Keling, o'rtoqlar, yeymiz,
Oyimga rahmat deymiz.

Naqorat:
Kulcha non-u kulcha-non,
Ko'rinishi gulcha non.

# Nevaralar qo'shig'i

S. Barnoyev she'ri

N.Norxo'jayev









Bog'im bor, gulzorim bor
Bosh bog'boni bobomlar.
Shirin so'zli beozor
Mehribonim momomlar.

Nevara, evara, chevaramiz.
Bizlar uyning chevarimiz, chevarimiz.

# KUZ

N.Ro'zimuhammedov she'ri

S.Abramova musiqasi






# LAVLAGI

F.Mu'min she'ri

D.Omonullayeva musiqasi




Lavlagi-yu, lavlagi,
Yerni asta kavlagin.
Mo'l bo'libti hosili,
A'lo ekan qizili.

Lolaga o'xshar,
Qip-qizil rangi,
Xuddi bo'yalganday
Yap-yangi.

# OLMA

P.Mo`min sheri

D.Omonullayeva musiqasi

**Moderato con moto**









Ketmas uzilib
Ketmas uzilib
Turar tizilib.
Kim olma yesa,
Kim olma yesa,
Mazza-yu mazza.

# SALOM BERGAN BOLALAR

P.Mo'min she'ri

N.Norxo'jayev musiqasi









Salom bergan bolaning
o'zi odobli,
Kulib turgan yuzlari,
go'yo oftobli.

Naqorat:
Salom berish - bu,
a'lo alomat.
Salom berganlar
bo'lsin salomat.

Salom bergan bolaning
darsi doim "besh"
maktab, uyda, ko'chada,
yaxshilarga esh.

# SOVUQ KIMNI IZLAYDI?

P.Mo'min she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi




Kiyinvolib, shaylanib,
Yursa o'ynab, aylanib,
Bo'shashmasa kim agar
Sovuq unga bo'yin egar.

Naqorat:

Quvontirib yanada,
Uchiradi chanada.
Bo'ling deya qahramon,
O'ynatadi qorboron.

Naqorat:



# O'zbekiston

F.Shousmonov she'ri

Sh.Ramazonov musiqasi



# SUMALAK

T.Baxromov she'ri

Sh. Yormatov musiqasi




Tomchilar billur rangda,
Qarang, qarang, qarang.
Kuz yoshin qilmas kanda,
Attang, attang, attanga.

Qishni kuzatsa kerak
Sumalak,
Bahordan berib darak...
Chak-chak, chak-chak,
Chak-chak-chak.



# Uxlab turdim

Ilyos Muslim she'ri

Fattox Nazarov musiqasi



# Vatanjonim - Vatanim

P.Mo'min she'ri

D.Omonullayeva musiqasi









Vatanjonim vatanim,
Ko'zim quynab ko'rganim.
Istiqloldan kulganim,
O'zbekiston gulshanim.

# Vals

D.Shostakovich musiqasi






# YAXSHI BOLA

P. Mo'min she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi




Maktabidan qolmaydi kech,
Yaxshi bola yaxshi bola,
Ikki baho olmaydi hech,
Yaxshi bola yaxshi bola.

Ish buyursang deydi kulib,
"Xo'p bo'ladi","xo'p bo'ladi",
Sheriklari - o'rtoqlari,
Ko'p bo'ladi, ko'p bo'ladi.

# Yurish marshi






# Do'lancha



# Dilxiroj

O`zbek xalq kuyi











# Alifbo bayrami

D.Omonullayeva musiqasi




1. Alifbodan
   Harflarni
   Biz o'rgandik
   oz-ozdan.
   Minnatdormiz
   O'rgatuvchi
   Muallimdan
   ustozdan.

   Naqarot:
   Tilimizni
   Sayratadi
   Alifbomiz bayrami.
   Dilimizni
   Yayratadi
   Bayramlarning
   xurrami.

2. Har bir harf
   Daftarlarda
   Gijinglaydi
   toy bo'lib.
   Yozganimiz
   Ko'rinadi
   Yulduz bo'lib
   oy bo'lib.

   Naqarot

3. Oldimizga
   Saf tortishdi
   Askarlayday harflar
   Barchasiga
   Qo'shiqlarda
   Berib o'tdik ta'riflar
   Naqarot

## Alla

V.Motsart musiqasi

Shoshmasdan






## Alla

O'zbek xalq ijodi

Shoshmasdan



# Archa bayram

Po'lat Mo'min she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi

**O'rtacha**




# Arg'amchi

**Shoshmasdan**

O'zbek xalq qo'shig'i






# Birinchi qor

R. Tolib she'ri

N.Norxo'jayev musiqasi

**Shoshmasdan**




Ey qor, shodsan buncha ham,
Axir erib ketasan.
Voy, voy, voy, voy.

Men sizlarga bir olam
Quvonch berib ketaman.
Hoy, hoy, hoy, hoy.

# Bolalik

Dilnur she'ri

Xurshida Hasanova musiqasi

Quvnoq













Qabday go'zal, shirindir bolalik,
Unda bizlar doimo qolaylik.
Quvonchlarga olamni to'ldirib,
Ertaklarda yurgandek bo'laylik.

N a q a r o t :
Quyosh ham nur sochar bizlarga,
Sho'x-shodon o'g'il-u qizlarga.
Osmonning bag'rida yayraylik,
Bor bo'lsin bolalik.

Quvontirib ko'zlarni o'ynaymiz,
Tabassumsiz hech kimni qo'ymaymiz.
Biz bor yerda kattalar zerikmas,
Xursand qilib barchani to'ymaymiz.

N a q a r o t

# Boychechagim omonlik

Qambar Ota she'ri

N.Norxo'jayev musiqasi




Husning emas bir onlik,
O'zing ezgu omonlik.
Har kim ko'ziga surtar,
Ko'rmaylik deb yomonlik.

N a q a r o t:
Tun-kun nurga intilding,
Qish qahrin tashlab kelding.
Dillarda qadring baland,
Bahorni boshlab kelding.



# Bug'doy

R.Tolib she'ri

D.Omonullayeva musiqasi




Ekkan edim,
Ko'kat bo'ldim don bo'ldi.
Pishgandan so'ng
Oppoqqina non bo'ldi.

Elim boy, elim boy,
Nimaga boy?
Elim boy, elim boy,
Ekar bug'doy.

# Gullar

Fotima va Zuhra Ziyomuhamedovalar she'ri va musiqasi




Lola gul-u atirgul,
Bizning bog'da gullar mo'l.
Chuchmoma va binafsha
Yashnab ketar hamisha

N a q a r o t :
Gullar, gullar, gullar,
Gullar, go'zalsizlar.
Har kun boqqa kelamiz,
Biz sizlarni sevamiz.



# Kapalak va kamalak

Normurod Narzullayev she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi






Gulga qo'nib kapalak,
Qanotini o'ynatar.
Ko'kda chaqnab kamalak,
Yetti rangda raqs etar.

Naqarot:
Kapalakjon, kapalak,
Sen ham menday sho'xmisan?
Uyda yolg'iz o'ltirib,
Zerikishga yo'qmisan?

Bizni imlab chorlaydi,
O'z yoniga kamalak.
Kelgin, birga uchaylik,
Qanot bog'lab, kapalak.



# Ko'klam keldi

P. Mo'min she'ri

Sh. Yormatov musiqasi




Chumoli ham tinmaydi,
Bekorchi ko'rinmaydi.
Ko'klam bilan albatta
Har jonzot harakatda.

Bag'rini keng ochar yer,
Ishlaganda chiqar ter.
Har yili ko'klam keladi,
Yana ham ko'rkam keladi.

# Maktab

K.Turdiyeva she'ri

J.Abdurahmonov musiqasi




O'quvchi, ustoz yurti,
Uning ishi - "O'qi, yoz" yurti.
O'rgatadi do'stlikka,
Doim to'g'riso'zlikka.

Qilasan hisob-kitob,
Berasan savol-javob.
Qo'lingda daftar-qalam,
Unda quvonchli olam!

N a q a r o t :
Uni so'zlaymiz maqtab,
Uni ataymiz - "Maktab!"
Unda har kuni quvnoq
Jaranglaydi qo'ng'iroq.



# Maktabim

I.Muslim she'ri

F.Nazarov musiqasi




Men dunyoda baxtiyor
Hech chekmayman alam-zor,
Vatanim mangu gulzor,
Qadrdonim maktabim!

A'lo o'qishdir burchim,
Sarf etaman bor kuchim.
Ishlayman xalqim uchun,
Qadrdonim maktabim!

# Navbahor

N.Narzullayev she'ri

G'.Qo'chqorova musiqasi

**O'rtacha tez**




Bahor chiroyin
kuzatgin-chi sen bir on,
Naqadar go'zal bahor,
chiroyidan bo'ldik lol,
Bu chaman maysazorlar
yurtimizga yarashar,
Jajjigina qalbimga
cheksiz quvonch bag'ishlar.



# Navro'zim - sho'x sozim

Habib Rahmat she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi

**Jadal**



2




Navro'z keldi kulib-kulib,
Bog'-u dalam gulga to'lib,
Qushlar sayrar juft-juft bo'lib,

Naqarot:
Navro'zim o'z so'zim,
Shod ovozim, sho'x sozim.

Navro'zimni sevar jahon,
Ona diyor dorilamon,
Kundan kunga zavqli davron,

Naqarot:
Navro'zim o'z so'zim,
Shod ovozim, sho'x sozim.

Yaxshi niyat har ko'ngilda,
Xurram kunlar kezar elda,
Takror-takror dilda-tilda:

Naqarot:
Navro'zim o'z so'zim,
Shod ovozim, sho'x sozim!



# Oppoq qandim

F.Mo'min she'ri

F.Alimov musiqasi

Hazilnamo




1. Choyga solsam
   Terib-terib,
   Sen ketasan
   Tezda erib.
      Oppoq qandim,
      Yumshoq qandim.

2. Kir qo'l bilan
   Ushlamayman.
   Uvol qilib
   Tashlamayman.
      Oppoq qandim,
      Yumshoq qandim.

3. Shirin bo'lar
   Ichgan choyim.
   Hamma sendan
   Xursand doim.
      Oppoq qandim,
      Yumshoq qandim.

# Oppoq qish-ey, oppoq qish

Po'lat Mo'min she'ri

Anatoliy Varelas musiqasi

**Mayin, ohista**




Dam olmoqda dalalar,
Keng vodiylar, daralar.
Fasl zavqi atrofga
Qo'shiq bo'lib taralar.

N a q a r o t :
Oppoq qish-ey, oppoq qish,
Eh qorlari yumshoq qish.
CHana, konki o'ynatgan
Quvnoq qish-ey, quvnoq qish.

Tarnovlarda sumalak,
Ko'llar oyna yaxmalak.
Ayting, ayting, bo'lmasin,
Hech kim yo'lda charxpalak.

N a q a r o t :
Oppoq qish-ey, oppoq qish,
Eh qorlari yumshoq qish.
CHana, konki o'ynatgan
Quvnoq qish-ey, quvnoq qish.



# O'zbekiston jannat

Dilshod Rajab she'ri

Xurshida Hasanova musiqasi

**O'rta sur'atda**




Sig'masa ham o'zi do'stga
Joyi bor uning.
Yo'lovchiga bir piyola
Choyi bor uning.

J.Najmiddinov she'ri

# Pianino

M.Zaynitdinova musiqasi

**O'ynoqi**




Bir, ikki, uch, o'ng oyoq,
Ohangga soling quloq.
Yangroq kuyga jo'r bo'lib,
Qo'shiq aytamiz quvnoq.



Yo'ldosh Sulaymon she'ri

# Qo'zichoq

Rustam Abdullayev musiqasi

**O'rtacha tez**




1. Barra pechak,
   Sara pechak.
   Terib keldik
   Yurmay dik-dik.
   Kisir-kisir,
   Bisir-bisir,
   Uni chayna,
   Ba, qo'zichoq.
   Uni chayna,
   Ma, qo'zichoq.

2. Men va Zaynab
   Har kun ko'plab
   Har xil o'tlar
   Terib yeymiz:
   Egil, egil,
   Yegil, yegil,
   Bo'lgin semiz,
   Ba, qo'zichoq.
   Bo'lgin semiz,
   Ma qo'zichoq.

## Quvnoq bolalar qo'shig'i

Xurshid Qayumov she'ri

G'afur Qodirov musiqasi

**Marshona**




1. Qor yog'ar, qor yog'ar -
Oq parga o'xshar.
Xonamiz gul ochgan
Bahorga o'xshar.

Naqarot:

Yangi yil archasin
Bezatdik ko'rkam.
Shoxlari tovlanar,
Chiroyli biram.

2. Davrani keng olib,
Boshlaymiz o'yin.
Aytamiz Yangi yil
Qo'shig'in - kuyin.

Naqarot



## Quyosh bilan suxbat

Xurshid Qayumov she'ri

Avaz Mansurov musiqasi

**Quvnoq**



# Salom, maktab

Egam Rahimov she'ri

Jaloliddin Najmiddinov musiqasi




1. Salom, maktab, jon maktab,
   Seni sevaman maqtab.
   Bizga ochiq quchog'ing,
   Yoningda gulzor - bog'ing.

2. Mana qo'limda kitob,
   O'qish kitob ham hisob.
   Sharillatib o'qiyman,
   Bilag'on bo'lay deyman.

3. Qalam, ruchkam bor, mana,
   Yozaman dona-dona.
   Xatim bo'lsin chiroyli,
   Kulib tursin naq oydek.

4. Salom, maktab, jon maktab,
   Seni sevaman maqtab.
   Men ham belcha ushlayman,
   Gul bog'ingda ishlayman.



# Sehrli dunyo

H.Ahmedova she'ri

X.Hasanova musiqasi



# Sharq taronasi

(Festival madhiyasi)

Usmon Azim she'ri

Diloram Omonullayeva musiqasi









Dunyoning ko'ngliga
Sen berding hayot,
Ruhingdan, ona-Sharq,
Yaraldi bayot.
Kuylamoq shavqida mohir
o'zingsan,
Hofiz o'zingdirsan, shoir
o'zingsan.

Naqarot:

Salom Samarqand - Sharq
darvozasi,
Taral jahonga - Sharq
taronasi!

Jo'r bo'lgin insonga musiqa
qanot,
Qo'shiqdan ko'ngillar
bo'lg'usi bunyod.
Qo'shiqda o'rtangan tilaksan,
o Sharq!
Jumlai jahonga yuraksan, o
Sharq!

Naqarot

# Shodiyona

Nurmuhammad Isroilov she'ri

Xurshida Hasanova musiqasi









N a q a r o t

Dilda shodlik, tilda qo'shiq,
Kuylaymiz yona, yona,
Bayramona kuyimiz,
Yurtimda shodiyona.
Sevinchimiz dostondir,
Tinchimiz - hur zamondir.
Shodligimiz dostondir,
Tinchimiz hur zamondir

S.Barnoyev she'ri

## Sog'lom avlod qo'shig'i

Sh.Yormatov musiqasi

**O'rtacha tez**




O'saversin bo'yimiz,
Tenglik - orzu-o'yimiz.
Bu dunyoda bor bo'lsin.
O'zbekiston - uyimiz.

Naqarot:
Dadam yuzga kirsinlar,
Ayam yuzga kirsinlar,
Bizlar yuzga kirganda
Yonimizda yursinlar.



Usmon Qo'chqor she'ri

## Toshkent

Xurshida Hasanova musiqasi

**Tez**






1. Jondek laziz shaharsan,
Aziz shaharsan.
Osiyo osmonida,
Yulduz shaharsan.

Ey quyosh shahrim,
O'zing bosh shahrim.

Naqarot:
Gullagan makon,
Jonim Toshkentimsan.
Topgil sharaf-shon,
Osmonim Toshkentsan.

2. Moziydan bir xotirsan,
Yosh bahodirsan.
Hur elda o'zing mangu,
Gullab yotursan.

Ey quyosh shahrim,
O'zing bosh shahrim.

Naqarot:
Gullagan makon,
Jonim Toshkentimsan.
Topgil sharaf-shon,
Osmonim Toshkentsan.



# Xorazm lazgisi

Xalq kuyi



# Yoz yaxshi

P.Mo'min she'ri

D.Zokirov musiqasi




Yoz kezar yashnagan elimda,
Yoz zavqi tilimda, dilimda.
Qushlarim sayrashar, qaynashar,
Buloqlar shivirlar, shildirar:
Yoz yaxshi, yoz yaxshi, yoz yaxshi!

Quyoshday mehnatim qudrati,
Pahlavon xalqimning sur'ati,
Yurtimni bezagan qaranglar,
Yoz kuyi har yonda jaranglar:
Yoz yaxshi, yoz yaxshi, yoz yaxshi!



# Bolalarning ko'zlari

Qambar Ota she'ri

Muhammad Otajonov musiqasi








# Boychechak

O'zbek xalq qo'shig'i

Sh. Yormatov qayta ishlagan






M.Qo'shoqov she'ri

# Bulbulcha

Mardon Nasimov musiqasi

**Mayin**




Shirin bulbulcham,
Kuylayver chaq-chaq,
Tinglab qo'shig'ing,
Dillar hushchaqchaq.

Mehnat qilibsan,
Ekibsan gullar.
Gulni sevamiz
Bizlar - bulbullar.



Yo'ldosh Suyunov she'ri

# Buvijonim

Dilorom Omonullayeva musiqasi

**Shoshmasdan, quvnoq**






Menga tengsiz mehri bor,
So'zlarida sehri bor.
Ertak aytib tolmaydi,
Erkalatib xormaydi.
Naqorat:
Buvijonim, buvijon.
Mehribonim buvijon,
Onaginam onasi-
Sho'xzabonim buvijon.

Ko'rolmasa bir kuni,
Uxlay olmaydi tuni.
Ko'ngli sog'inchga to'lib,
Izlar parvona bo'lib.
Naqorat.
Baxtimga omon yuring,
Hushxandon davron suring.
Ko'zingiz namlanmasin,
Dilingiz g'amlanmasin.
Naqorat.



# Diyor madhi

Habib Rahmat she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi






Ona Vatan ertasi,
Kelajakning mevasi,
Bilim, hunar egasi
Biz bo'lamiz albatta,
Niyatlar ulkan, katta.

Orzularim uch berar,
Diyor mehri kuch berar,
Dilda yorug' tuyg'ular,
Yorug'likka oshnamiz,
Ezgu ishga tashnamiz.

Dovrug'lidir Vatanim,
Obro'lidir Vatanim.
Dunyodagi chamanim
Ko'z qoramdek saqlayman,
Ishonchingni oqlayman.

Temur bobom dilda bor,
O'lkam bo'lur gul, obod,
Bayroqni tutib ozod,
Shod boramiz ilgari,
Mard g'oliblar singari!



# Gul terdi gullar

Po'lat Mo'min she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi






O'g'il bola qiz bola
Qirdan terdi gullola
Qarasangiz ularga
Ular o'xshar gullarga

Naqarot:
Gul terdi gul terdi
Gul terdi gullar
Eh qarang rang-barang
Gul terdi gullar

Gullar terib ozmuncha
O'ynadilar to'yguncha
Har tamonga chopdilar
Yangilarin topdilar

Naqarot:
Gul terdi gul terdi
Gul terdi gullar
Eh qarang rangbarang
Gul terdi gullar



Abdulla Oripov she'ri

## O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi

Mutal Burxonov musiqasi











Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Naqarot:
Oltin bu vodiylar - jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni,
Haqsevar, ona yurt, mangu bo‘l obod!

Naqarot:
Oltin bu vodiylar - jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

## Onajonim, sog' bo'ling

Mahmudjon Dadaboyev she'ri va musiqasi






## Oy bo'lamiz - toy bo'lamiz

Safar Barnoyev she'ri

Habibullo Rahimov musiqasi






Oy bo'lamiz,
Toy bo'lamiz,
Sho'xliklari soy bo'lamiz.
Amir Temur bobomizdek
Botir, Hotamtoy bo'lamiz.

Oy bo'lamiz,
Toy bo'lamiz,
So'zi shirintoy bo'lamiz.
Yigitchalar Alpomishu
Qizlar Barchinoy bo'lamiz.

Oy bo'lamiz,
Toy bo'lamiz,
Ko'rib qo'ying, boy bo'lamiz.



Quddus Muhammadiy she'ri

# Oymomojon rom bo'ldi

Sh. Yormatov musiqasi



Habib Rahmat she'ri

# O'zbegimdan aylanay

Nadim Norxo'jayev musiqasi








Qambar Ota she'ri

# O'zbekiston onajon

Muhammad Otajonov musiqasi













# O'zbekistonim

F.Shoismonov she'ri

Sh.Ramazonov musiqasi

**Tempo di marcia**




Ko'rkam diyorsan,
Bag'ri bahorsan,
Keng paxtazorsan,
Gullagin, O'zbekistonim!

Naqorat:
Paxtang kabi oq,
Iqboling porloq,
Sharq uzra mayoq
Paxtakor, O'zbekistonim!

Tog'laringda kon –
Ma'danga makon,
Senga fido jon,
Gullagin, O'zbekistonim!

Naqorat:
Sen - ona yurtim
Durdona yurtim,
Mardona yurtim –
Gullagin, O'zbekistonim!

Naqorat.

# Shaftoliga savolim

Po'lat Mo'min she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi









Shaftolim, oh, shaftolim,
Qizil-u, oq shaftolim.
Hamma menday sevadi
Pishganda maza bolim,
Shaftolim...

Asta aytib beraqol,
Seni topgan qay olim?
Indamadi shaftolim,
Qiyin ekan savolim,
Shaftolim...

Po'lat Mo'min she'ri

# Uzum

Dilorom Omonullayeva musiqasi

**Allegro moderato**









Oftobga nur shimirganlar,
Yetilganlar, semirganlar.
Bobom bilan bog' oralab,
Uzum uzdik, uzum uzdik, xo'p saralab.

# Yakkadir Toshkent

Usmon Qo'chqor she'ri

Xurshida Hasanova musiqasi

**Moderato con moto**













# Do'ppi tikdim

Manas Leviyev musiqasi
Turob To'la she'ri



# Dutor bayoti

O'ynoqi

Xalq kuyi





# Yugurish

Allegretto

S.Abramova musiqasi



# Marsh






# Yallama yorim



# Marsh teodoro






# FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1 G.Sharipova "Musiqa va uni o'qitish metodikasi" 2008 yil

2 R.Yunusov "O'zbek xalq musiqa ijodiyoti" 2001 yil

3 O.A.Apraksina Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasi. 2001 yil

4 B.A.Vaxromeev"Musiqa elementar nazriyasi"2002 yil

5 L.G.Bolotkina. Pedogogika bilim yurtlari dasturi.

6 X.Nurmatov. Musiqa alifbosi. 1-sinf uchun. – T.: 2001.

7 X.Nurmatov. Musiqa alifbosi. 2-sinf uchun. – T.: 2001.

8 3-sinf uchun musiqa darsligi. – T.: 2001.

9 N. Soliyev "Musiqa savodi alifbosi", 2003.

10 N. Tursunova "Dildan kuyla, quvnab o'yna", 2003.

11 A. Liviyev "O'zbek milliy cholg'u sozlari tarixi", 2005.

12 S. Yo'ldosheva, G. Sattorova "Folklyor etnografik ansamblari", 2007.

13 B. Umirzoqov, O. Fayziyev "Rubob taronalari", 2003.

14 M. Qosimova "Bolalar bog'chalarida o'zbek xalq milliy raqslari", 2003.

15 N. Soliyev, A. Umarov "Musiqa savodi, alifbosini o'qitish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma", 2003.

16 S. Sharafiyeva "Xor sinfi", 2003.

17 E. Волжина, X. Nurmatov "Ritmika", 2007.

18 R. Tursunov "Xalq musiqa ijodiyoti va adabiyoti", 2002.

19 Azizov S.S. "UMUMIY FORTEPIANO fani bo`yicha O`quv-uslubiy majmua", O`zDK, 2016

20 Djamalova D., Utayeva N.. "Fortepiano olamiga ilk qadamlar", o`quv qo`llanma. G`.G`ulom nomidagi NMIU, Toshkent, 2016.

21 Николаев А., Кисель Е., Натансон Б., Ереженская Н.. "Школа игры на фортепиано". Издательство "Музыка", Москва, 1975.

22 M.Alekseev – "Metodika obuchenie igre na fortepiano" 3-izd. M., 1978;

23 A.Artoboleevskaya – "Pervaya vstrecha s muzikoy"; M., 1989;

24 A.Birmak – "O xudojestvennoy texnike pianista"; M., "Muzika" 1973;

25 L.Barenboym – "Muzikalnaya pedagogika I ispolnitelstvo"; L., 1974;
26 S.A.Sagiyans – "Nachalnoe razvitie fortepiannoy texniki"; Volgograd, "Peremena" 2004;
27 Y.Gay – "Texnika fortepiannoy igri"; M., "Budapesht" 1957;
28 B.Milich – "Vospitanie uchenika-pianista"; M., "Kifara" 2002;
29 G.Kogan – "Rabota pianista" 3-izd. – M., 1979;
30 G.Neygauz – "Ob isskustve fortepiannoy igri"; M., "Muzika" 1967;
31 E. Liberman – "Rabota nad fortepiannoy texnikoy" 3-izd. M., 2002;
32 T.Berkman, A.N.Esipova – "Muzikalnaya literatura"; Muzgiz 1958;
33 A.Korto – "O fortepiannom isskusstve"; M., "Muzika" 1965.
34 I.Safarova – "Igri dlya organizatsii pianisticheskiy dvijeniy" E., 1994;



# MUNDARIJA

Kirish.......... 3
Fortepiano cholg'u sozi.......... 4
Fortepiano cholg'usi xususida.......... 6
Musiqiy tovushlar va fortepiano klaviaturasi bilan tanishuv.......... 9
Musiqaning ifoda vositalari.......... 14
Ijro texnikasi.......... 18
Asarlar haqida ma'lumotlar va ijro uchun tavsiyalar.......... 25
"O'zbekiston davlat madhiyasi"-M.Burvonov musiqasi, A.Oripov she'ri.......... 30
"Aziz bo'ston-O'zbekiston"- D.Omonullayeva musiqasi, M.Mirzo she'ri.......... 33
"Bahor valsi"- M.Mirzayev musiqasi.......... 35
"Chertmak"- O'zbek xalq qo'shig'i, X. Rahimov qayta ishlagan.......... 37
"Dilxiroj"- O'zbek xalq kuyi.......... 38
"Diloromning qo'shig'i"- D.Omonullayeva musiqasi I.Donish she'ri.......... 41
"Kulcha non"- I.Hamroyev musiqasi, P.Mo'min she'ri.......... 43
"Nevaralar qo'shig'i"- N.Norxo'jayev musiqasi, S. Barnoyev she'ri.......... 44
"Kuz" S.Abramova musiqasi, N. Ro'zimuhammedov she'ri.......... 46
"Lavlagi"- D.Omonullayeva musiqasi, P.Mo'min she'ri.......... 47
"Olma"- D.Omonullayeva musiqasi, P.Mo'min she'ri.......... 48
"Salom bergan bolalar"- N.Norxo'jayev musiqasi, P.Mo'min she'ri.......... 50
"Sovuq kimni izlaydi?"- N.Norxo'jayev musiqasi, P.Mo'min she'ri.......... 52
"O'zbekiston"- Sh.Ramazonov musiqasi, F.Shousmonov she'ri.......... 53
"Sumalak"- Sh. Yormatov musiqasi, T.Baxromov she'ri.......... 54
"Uxlab turdim"- F.Nazarov musiqasi, I.Muslim she'ri.......... 55
"Vatanjonim-vatanim"- D.Omonullayeva musiqasi, P.Mo'min she'ri.......... 56
"Vals"- D.Shostakovich musiqasi.......... 58
"Yaxshi bola"- N.Norxo'jayev musiqasi, P.Mo'min she'ri.......... 59
"Marsh"- F. Nazarov musiqasi.......... 60
"Do'loncha"- O'zbek xalq kuyi.......... 61
"Alifbo bayrami"- D.Omonullayeva musiqasi P.Mo'min she'ri.......... 65
"Alla"- V,Motsart musiqasi.......... 66
"Alla"- O'zbek xalq ijodi.......... 67
"Archa bayrami"- N.Norxo'jayev musiqasi, P.Mo'min she'ri.......... 68
"Arg'amchi"- O'zbek xalq qo'shig'i.......... 68
"Birinchi qor"- N.Norxo'jayev musiqasi, R.Tolib she'ri.......... 69
"Bolalik"- X. Xasanova musiqasi, Dilnur she'ri.......... 70
"Boychechagim omonlik"- N.Norxojayev musiqasi, Qambar Ota she'ri.......... 74
"Bug'doy"- D.Omonullayeva musiqasi R.Tolib musiqasi she'ri.......... 75
"Gullar"- Fotima va Zuhra Ziyomuhammedovlar musiqasi va she'ri.......... 76
"Kapalak va kamalak"-N.Norxo'jayev musiqasi, N.Nazrullayev she'ri.......... 77
"Ko'klam keldi"- Sh.Yormatov musiqasi, P.Mo'min she'ri.......... 79
"Maktab"-J. Abdurahmonov musiqasi, K. Turdiyev she'ri.......... 80

"Maktabim"- F.Nazarov musiqasi, I.Muslim she'ri....81
"Navbahor"- G'.Qo'chqorovamusiqasi N.Narzullayyv she'ri....82
"Navro'zim-sho'x so'zim"- N.Norxo'jayev musiqasi, H. Rahmat she'ri....83
"Oppoq qandim"- F.Alimov musiqasi, P.Mo'min she'ri....85
"Oppoq qish-ey, oppoq qish"- A.Varelas musiqasi, P.Mo'min she'ri....86
"O'zbekiston jannat"- X. Xasanova musiqasi D. Rajab she'ri....87
"Pianino"- M.Zaynitdinova musiqasi, J.Najmiddinov she'ri....88
"Qo'zichoq"-R.Abdullayev musiqasi, Y.Sulaymonov musiqasi she'ri....89
"Quvnoq bolalar qo'shig'i"- G'. Qodirov musiqasi, X. Qayumov she'ri....90
"Quyosh bilan suhbat"- A.Mansurov musiqasi, X. Qayumov she'ri....91
"Salom, maktab"- J. Najmiddinov musiqasi, E. Rahimov she'ri....92
"Sehrli dunyo"- X. Hasanova musiqasi, H. Ahmedova she'ri....93
"Sharq taronasi"- D. Omonullayeva musiqasi, U.Azim she'ri....94
"Shodiyona"- X. Hasanova musiqasi, N. Isroilov she'ri....96
"Sog'lom avlod"- Sh.Yormatov musiqasi, S. Barnoyev she'ri....98
"Toshkent"- X. Hasanova musiqasi, U. Qo'shqor she'ri....99
"Xorazm lazgisi"....101
"Yoz yaxshi"- D. Zokirov musiqasi, P.Mo'min she'ri....102
"Bolalarning ko'zlari"- M.Otajonov musiqasi, Qambar Ota she'ri....103
"Boychechak"- O'zbek xalq qo'shig'i, Sh.Yormatov qayta ishlagan....105
"Bulbulcham"- M.Nasimov musiqasi, M. Qo'shqorov she'ri....106
"Buvijonim"- D.Omonullayeva musiqasi, Y.Suyunov she'ri....107
"Diyor madhi"- N.Norxo'jayev musiqasi, H. Rahmat she'ri....109
"Gul terdi gullar"- N. Norxo'jayev musiqasi, P.Mo'min she'ri....111
"Onajonim, sog' bo'ling"- M.Dadaboyev musiqasi va she'ri....116
"Oy bo'lamiz- toy bo'lamiz"- H.Rahimov musiqasi, S. Barnoyev she'ri....117
"Oymomojon rom bo'ldi"- Sh.Yormatov musiqasi, Q. Muhammadiy she'ri....119
"O'zbegimdan aylanay"- N.Norxo'jayev musiqasi, H. Rahmat she'ri....120
"O'zbekiston onajon"- M.Otajonov musiqasi, Qambar Ota she'ri....122
"O'zbekistonim"- Sh.Ramazonov musiqasi, F.Shousmonov she'ri....125
"Shaftoliga savolim"- N.Norxo'ja musiqasi, P.Mo'min she'ri....126
"Uzum"- D.Omonullayeva musiqasi, P.Mo'min she'ri....128
"Yakkadir Toshkent"- X. Xasanova musiqasi, U. Qo'chqor she'ri....130
"Do'ppi tikdim"- M. Leviyev musiqasi, T.To'la she'ri....133
"Dutor bayoti"- Xalq kuyi....134
"Yugurish"- S.Abramova musiqasi....135
"Marsh"-F.Nazarov musiqasi....136
"Yallama yorim" - O'zbek xalq kuyi, H. Rahimov moslashtirgan....137
"Marsh teodoro" - J.Bize musiqasi....138
Foydalanilgan adabiyotlar....139

... RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
... TA'LIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
— 3870 —